



YUNUS RAJABIYNING SHASHMAQOM UMRBOQIYLIGINI TA'MINLASHDA TUTGANO'RNI.

Isakov Ulug'bek Tuxtasinovich

Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrası o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11197869>

Annotatsiya:

Mazkur maqolada milliy musiqa san'atimizning yirik bilimdoni, akademik Yunus Rajabiyning milliy musiqa merosimiz bo'lgan "Shashmaqom"ning umrboqiyligini ta'minlash maqsadida bajargan ijodiy ishlari va samarali mehnatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar:

Shashmaqom, dutor, nota, Yunus Rajabiy, musiqiy meros, usul, ustoz, kuy O'zbek milliy musiqa merosimizning yirik bilimdoni, bastakor, ustoz sozanda, nuqtadon hofiz, akademik Yunus Rajabiy nomini nafaqat respublikamiz, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari katta faxr va iftixor bilan tilga oladilar. Zero bu tabarruk inson o'zbek xalq musiqasi, xususan milliy musiqamiz gultoji sanalmish "Shashmaqom"ning umrboqiyligini ta'minlashga butun ongli hayotini bag'ishlagan buyuk siymodir.

Yunus Rajabiy sobiq sovet ittifoqi davrida deyarli unutilib ketgan xalq musiqiy durdonalariga qayta umr bag'ishlashdek xayrli ishning tamal toshini qo'ygan alloma ustozlardan biri edi. O'tmishda nota yozuviga ega bo'lmagan xalqimizning musiqiy merosi ustozdan shogirdga og'zaki tarzda o'tib kelganligi bois ushbu musiqiy namunalar uzoq muddat xalqimiz orasida tarqoq va tizimlashmagan tartibda ijro etib kelindi. Yunus Rajabiy mazkur kuy va qo'shiqlarni to'plab, ularga zargarona sayqal va jilo berib notaga tushirgan.

Ustoz dutor, nay, doyra singari cholg'ularni mahorat bilan chala olgan sozanda, o'ziga xos ovoz tembri va ijro uslubiga ega hofiz bo'lib, barakali ijod qilgan ohangsoz sifatida faoliyat ko'rsatgan. Uning cholg'u sozlari uchun "Bahorim", "Muborak" kuylari, ovoz uchun bastalagan "Ne navo soz aylagay", "Ra'nolanmasin", "Koshkiy", "Kuygay" kabi lirik qo'shiqlari, "Padarkush", "Yorqinoy", "Abdulfayizxon", "Qasos", "Farhod va Shirin" kabi sahna asarlari Yunus Rajabiyning serqirra ijodkor ekanligidan darak beradi.

Yunus Rajabiy umrining yarim asrdan ko'proq qismini xalq kuy va qo'shiqlarini to'plash, ularni nota yozuviga ko'chirishga bag'ishladi. Xususan, u o'zbek va tojik xalqining bebaho musiqiy merosi bo'lgan Shashmaqomni notalashtirish uchun beqiyos mehnat qildi.

Buxoro Shashmaqomi ilk marta 1924 yilda (A.Fitrat va N.Mironov tahriri ostida) rus musiqashunosi V. Uspeniskiy, 1950 yilda esa, Buxoro maqom





maktabining bilimdonlari, Tojikiston san'at ustalari Boboqul Fayzullayev, Shohnazar Sohobov va Fazliddin Shahobovlar (V.Belyayev tahririda) tomonidan notaga ko'chirilgan edi.

Shashmaqomning yuqorida nomlari keltirilgan nusxalarida juz'iy bo'lsada bir qator kamchilik va noqulayliklar mavjud edi. Masalan: V. Uspeniskiy variantida maqomlar nasr (ashulla) qismining she'riy matni yozib olinmagan. Shuningdek, ayrim sho'balar tushirib qoldirilgan va bir hil taronalarning ritmik, ya'ni usul tuzilishida ba'zi kamchiliklar bor. Shashmaqomning notalashtirilgan tojik nusxasi esa avvalgisidan ancha to'ldirilib usuliy tomonlari tiklangan bo'lsada, ularning she'riy matni asosan Umar Hayyom, Hofiz Sheroziy, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Kamol Xo'jandiy, Vasliy, Vositiy, Iso Ko'lobiy kabi fors-tojik mumtoz shoirlarining she'rlaridan iborat edi.

Ustoz Yunus Rajabiy tomonidan notaga olingan nusxada esa, Shashmaqom ashula yo'llarining hamma sho'balari Alisher Navoiy, Lutfiy, Ogahiy, Atoiy, Munis, Mashrab, Amiriy, Uvaysiy, Nodira, Furqat kabi o'zbek mumtoz shoirlarining she'rlari bilan almashtirildi. Bu esa maqomxon hofizlar va Shashmaqom shinaqandarlari ko'lamining yanada kengayishiga olib keldi. Shuni alohida takidlamok joizki, og'zaki an'anadagi xalq kuy va ashulalari shakl va tuzilish jihatidan katta hajimga ega. Keng diapazon va murakkab ritm (usul), rang-barang xonayu bozgo'ylar hamda ketma-ket tizimlashgan sho'balardan iborat bo'lgan Shashmaqom ohanglarini notaga ko'chirish murakkab jarayon bo'lib kishidan tug'ma musiqiy istedad, botiniy ritm, mustahkam xotira, ijrochilik qobiliyati va mashaqqatlik mehnatni talab qiladi.

Yunus Rajabiy yoshlik davridan xalq musiqiy merosiga ihlos qo'yib, uni mohirona ijro etib kelganligi va buxorolik Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Levi Boboxonov, Usta Shodi Azizov, Domla Halim Ibodov, samarqandlik Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mixail Tomasov kabi maqomdon hofizlarning ijro dasturlaridan boxabar bo'lganligi bois bu ishga dadillik bilan kirishdi.

Ustoz Yunus Rajabiyning nuqtadonligi shundaki, maqomotning o'q ildizini tashkil qiluvchi "Buxoro Shashmaqomi"ni (O.Matyobov iborasi) notaga olishda asosan buxorolik maqom ustalari bilan hamkorlik qilib, Marufjon Toshpo'latovdan 23 kuy, Borux Zirkiyevdan 87 ashula, Yoqub Davidovdan 6 ashula, shuningdek, Domla Halim Ibodovdan "Mo'g'ulchai Segoh"- jami 117 sho'bani notaga tushirib, Shashmaqomning qolgan sho'balari M. Mullaqandov, M. Tolmasov va o'z ijrosida notalashtirilib, o'zbek xalq musiqasi (Buxoro maqomlari) ning beshinchi jildiga kiritildi. Ushbu kitob O'zbekiston Respublikasi





Badiiy adabiyot nashryotida 1959 yilda 865 betdan iborat 61 bosma taboq hajmida nashr ettirildi. Respublika radiosi qoshida maqom ansambli tuzilgach, unga Yunis Rajabiy ustozlik qildi va bir qancha shogirdlar yetishtirib maktab yaratdilar. Shashmaqomning barcha sho‘balarini 1440 daqiqalik jonli ijroda magnit tasmlari va plastinkaga ko‘chirdilar. Ustoz to‘plagan va yaratgan kuylar ayni paytda 400 bosma taboq hajmida bo‘lib, 12 jildidan iborat bo‘lgan kitobga joylashtirilgan. Ha, alloma Yunus Rajabiyning mashaqqatli zahmatlari tufayli bebaho musiqiy merosimiz bugungi kunda G‘arbu Sharq sahnalarida ijro etilmoqda, uning ma’naviy ne‘matidan jahonning deyarli barcha xalqlari bahramand bo‘lmoqdalar. 2003 yilning 7 noyabrida YUNESKO tomonidan “Shashmaqom og‘zaki va nomoddiy merosning durdonasi” sifatida ro‘yhatga olindi. Bunday e’tirofga Shashmaqomning bebaholigi, an’anaviyligi va o‘ziga hosligi asos bo‘ldi. Ustoz Yunus Rajabiy o‘zbek musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi buyuk xizmatlari uchun qator orden va medallar bilan taqdirlangan. 1939 yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi”, 1953 yilda “O‘zbekiston xalq artisti” unvonlari berilgan. 1966 yil O‘zbekiston fanlar Akademiyasiga haqiqiy a’zo etib saylandi. “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi, fidoiy san’atkor Yunus Rajabiy O‘zbekiston musiqa san’atiga, uning xalqiga bir umr poklik bilan xizmat qilib, xayotligidayoq o‘ziga xaykai qo‘yib ketdi. Bugungi kunda Jizzax viloyat musiqali drama teatri, Toshkent metrosi bekati, Toshkent ko‘chalaridan biri va o‘zi asos slogan O‘zbekiston radiosi qoshidagi “Maqom ansambli” uning nomi bilan atalib kelmoqda. Ayni paytda Toshkentda Yunus Rajabiy uy-muzeyi faoliyat ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda ustoz Yunus Rajabiyning hayot yo‘li barcha san’at ahli uchun ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fayzulla To‘rayev. Buxoro shashmaqomi tarixidan. “Musika” nashriyoti. Toshkent-2011.-184 b.
2. Matyoqubov O. Maqomot. “Musika” nashriyoti. Toshkent-2004.
3. Исаков, У. Т. (2022). ЎЗБЕК МУСИҚА МАДАНИЯТИ РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ, МАНБАЛАРИ ҲАМДА УНИ ЎРГАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Science and innovation, 1(1), 625-636.

